




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

3-SHO'BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

XI–XII ASR TURKIY TIL TIBBIY TERMINOLOGIYASI TIZIMINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA AKS ETISHI

REPRESENTATION OF THE MEDICAL TERMINOLOGY SYSTEM OF THE TURKIC LANGUAGE IN THE 11TH–12TH CENTURIES IN MAHMUD KASHGARI'S “DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK”

Hamidulla DADABOYEV,

TOSHD O‘TAU professori, filologiya fanlari doktori
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470

Annotation. *The article examines terms denoting types of diseases that were actively used in the system of medical terminology of the early old turkic language during the Qarakhanid period. The analysis is conducted in terms of their structure, word formation and semantic composition based on examples from Mahmud Kashgari's encyclopedic work “Diwan lughat at-turk”. The study demonstrates the diversity of terms recorded in the turkic language over a period of approximately 11-12 centuries within this field, showing that majority of them belong to the native turkic lexical layer. It also reveals that a certain portion of these terms has withstood the test of time and has survived to the present day, while others have fallen out of use due to various factors.*

Key words: *medical terminology, encyclopedia, illness, old turkic language, the modern uzbek system of medical terminology, dermatological diseases infectious disease.*

Qoraxoniylar sulolasining Osiyo qit'asidagi ulkan yerda siyosat sahnasiga chiqishi muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqibatida dol holatga tushib qolgan turkiy til qomatining ma'lum darajada o'nglanishi, ya'ni tiklanishiga olib keldi. Sulola hukmdorlarining el-ulush boshqaruvi, tashqi siyosat yuritishda ona tilini keng qo'llash, uning cheksiz imkoniyatlaridan nafaqat kundalik jonli so'zlashuv, shuningdek, rasmiy ish yuritish bitiklari, ilm-fan, ta'lim, savdosotiq, moliya, iqtisod, elchilik, harbiy ish, harbiy san'at va h.k. sohalarda foydalanishga qaratilgan siyosati o'z samarasini bergani tarixdan ayon.

O'tmishda yuz bergan qanchadan-qancha ur-sur, tala-tala, qirg'in-barotlarga qaramay bizning kunimizgacha yetib kelgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyining “Hibat ul-haqoyiq”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, Ahmad Yassaviyning “Hikmat”lari qatori Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” qomusiy asarining ochun yuzini ko'rishi Qoraxoniylar hukmdorlarining ona tilini ardoqlash, alqash, rivojlantirish, takomillashtirish yo'lida olib borgan tizimli sa'y-harakatlari samarasi sanaladi.

Husayn o'g'li Mahmud tomonidan hijriy 464-yil, jumodiyul avvalning boshlarida tuzishga kirishilgan, to'rt bor qayta yozilib, tahrir qilinib, 466-yil, jumodiyul oxirning 12-sanasida tugallangan “Devonu lug'otit turk” [Махмуд Кашгарий 1960-1963; 453] da davr eski turkiy til tovush tizimi, so'z turkumlari, gap qurilishi, so'z yasalishi, so'z boyligi, chunonchi, turfa terminologiyasi yaqqol namoyon bo'lgan.

XI–XII yuzyil turkiy til terminlar tizimi borasida biz tomonimizdan talay izlanishlar olib borilgani til tarixi mutaxassislariga ozmi-ko'pmi tanishligini hisobga olib, ushbu maqolada lug'atdan o'rin olgan tibbiy istilohlar, aniqlik, kasallik turlari nomlarini atovchi terminlar to'g'risida so'z yuritdik. Zotan, bizning kuzatishlarimiz ensiklopedik tabiatga ega lug'atda 170 dan ortiq tibbiy terminlar o'rin olgani va izohlanganini ko'rsatdi. Qayd etilgan istilohlar mavzu

jihatidan turlicha bo'lib, ular "dard, kasallik", "kasallik turlari", "dori-darmon va em (davo)", "kasal, bemor", "emchi, tabib, shifokor", "kasallik chaqiruvchi hashorot, viruslar", "tibbiy asbob-anjomlar", "tibbiy ish-harakat, amaliyot, jarayon" nomlarini qamrab olgan.

Kasallik turlarini ifodalagan istilohlarni tahlilga tortishdan oldin, "Devon"da "kasallik, dard" ma'nosini bildirish uchun **ig** (I, 82), **kem** (I, 325), **mün** (III, 154) hamda **to'ga** (III, 244) istilohlari qo'llanganini ta'kidlash o'rinli. Keltirilgan terminlardan ilk marta Yar-Xotodan topilgan fol kitobchasida qayd etilgan **ig** istilohi ishlatilishda faol bo'lgani bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda **ig** istilohining **ağrīg kegān**, **kem**, **toğa** ma'nodoshlar bilan munosabatga kirishib, **ig ağrīg**, **ig kem**, **ig toğa** juft terminlarni voqelantirganini urg'ulash foydadan xoli bo'lmas (DTS, 203). Kuzatishlar **ig** terminining XIII–XIV yuzyil turkiy tibbiy terminlar tizimida qo'llanishda qolganini dalillaydi. Xususan, bu istiloh "Qisasi Rabg'uziy" (27v19) va "Nahj ul-farodis" (44b3) matnlarida keng qo'llangan.

Hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida "ko'z shox pardasining xira tortishi" ma'nosi ko'zga **oq tushishi (leykoma)** termini yordamida ifodalanadi (KTO'L, 66). Mahmud Koshg'ariy pardaning chandiqli o'zgarishi bois paydo bo'ladigan mazkur ko'z kasalligi **enüč** (I, 86) istilohi bilan atalganini e'tirof etgan. Ayni istilohdan yasalgan **enüčlä** = "ko'zni tuzatmoq, davolamoq": *Otači közüg enüčlädi* – Tabib ko'zga dori quydi (I, 293) va **enüčlän** = "parda bosmoq, noxin chiqmoq": *Aniñ közi enüčlände* – Uning ko'zini parda qopladi (I, 287) terminlarining lug'atda izohlanishi **enüč** istilohining davr tilida yuqori darajada iste'molda bo'lganini ko'rsatadi.

Lug'at tuzuvchining nazaridan ko'z kasalliklari nomlari ham chetda qolmagan. Chunonchi, "ko'zga tushadigan dog'" ma'nosi **kög** (III, 146), "ko'zning xiralashishi" hodisasi esa **bus // pus**: *Er közi bus boldi* – (me'dadan paydo bo'lgan bug'dan) odamning ko'zi xiralashdi (III, 137). "Dog'" ma'nosini anglatgan **kög** istilohi dastlab Turfon matnlarida qayd etiladi: *Közün içintä kög yoq* – Ko'zingda dog' yo'q (DTS, 312). **Kög** asosida "dog' bilan qoplanmoq" semasini bildirgan **köglän** = holat fe'li shakllangan: *Yüzi aniñ köglände* – Uning yuzi dog' bilan qoplandi (II, 295).

Hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida qo'llanuvchi **qo'tir** termini yordamida "kana qo'zg'atadigan, kuchli qichishish bilan kechadigan terining yuqumli kasalligi" anglashiladi (KTO'L, 513). Ayniqsa tunda zo'rayadigan bu illat "Devon"da **uzuz** istilohi bilan ifodalangan (I, 88). Ushbu birlikning lug'atda uch o'rinda qo'llangani va uning ishtirokida **uzuzluğ** "qo'tirli, qo'tir yarali" (I, 163) hamda **uzuzla** = "qo'tirdan tuzatmoq, davolamoq" (I, 294) istilohlarining yasalganligi birlikning qo'llanish doirasini belgilaydi.

"Chivin, pashsha chaqishidan yoki eshak yem boshlanishida terida paydo bo'ladigan shish, paysa" sememasi eski turkiy tilda **bars** istilohi bilan ifodalangan: *Aniñ eti bars boldi* – Uning terisida hasharot chaqishi oqibatida shish paydo bo'ldi (I, 332). Boshqa eski turkiy yodgorliklarda bu termin uchramaydi.

Faqat insonlarda uchraydigan, surunkali, butun badanga tarqaladigan yuqumli kasallik hozirgi o'zbek tibbiyot terminologiyasida **moxov** termini bilan ifodalanadi (KTO'L, 392). Bu kasallik turini eski turkiy tilda etimologiyasi qorong'i **anumī** istilohi bildirganini Mahmud Koshg'ariy qayd etgan (I, 155).

Hozirgi o'zbek tibbiy terminlari sirasida maxsus filtrlanadigan virus paydo qiladigan, bemordan sog'lom bolaga nafas yo'li orqali yuqadigan kasallik **qizamiq** termini bilan yuritiladi (TTEL, I, 771). Ushbu kasallik "Devon"da **qizlamuq** "qizamiq, toshma" (I, 480) hamda **ček** = // **čeč** = "tarqalmoq" leksemasidan hosil qilingan **čekäk** istilohi bilan anglashilgan. Keyingi termin lug'at tarjimonlari tomonidan "gul, chechak kasalligi (chigilcha)" (I, 369) tarzida izohlangan (DTS, 143).

"Qizarmoq, lovillamoq" semali **qiz** = fe'li asosida yuzaga kelgan va ayni leksema ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan **-a** qo'shimchasi bilan hosil qilingan, hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan **qizamiq** terminining **qiz** = fe'lga kuchaytirish semasini bildiruvchi **-la** affiksini

biriktirish orqali voqelangan **qizlamuq** shakli “Devon”da, **qizamuq** shakli esa, ilk bor uygʻur (turk) yozuvli Turfon matnlarida qayd etilgan (DTS, 450).

Qavariq termini bugungi kunda “terining pufak boʻlib qavarib chiqishi”ni bildiradi (TTEL, I, 322). “Devon”da odam yuzi va barmoqlarida paydo boʻladigan qavariq **qamchiğu** (I, 453) hamda **qabarğan** (I, 472) istilohlari bilan ifodalangan. Alisher Navoiy asarlarida “qavarchiq, uchuq; chipqon” maʼnosi **qabarçuq** derivati yirdamida anglashilgan (ANATIL, IV, 10). Hozirgi **qavariq** (< *qavar*- “shishmoq”) soʻzi “Devon”dagi **qabarğan** (< *qabar*= “qabarmoq”) hamda eski oʻzbek tibbiy terminologiyasida ishlatilgan **qabarçuq** istilohlari bilan oʻzakdoshdur. Qoʻl bilan ishlash jarayonida paydo boʻladigan qoʻl qavarchigʻi **müjüzäk** (III, 397) soʻzi bilan atalgan boʻlib, u **müjüz** (shox) soʻzidan kichraytirish –(ä)k qoʻshimchasi orqali yasalgan.

“Devon”da “et va teri orasida paydo boʻladigan shish” kasalligi **bez** istilohi bilan ifodalangan (III, 134). Bu soʻz ilk bor X yuzyil manbasi “Oltun yoruq”da **qart** leksemasi bilan birikib, **qart bez** “yara va chipqonlar” maʼnosida qoʻllangan (DTS, 429). Bugungi oʻzbek tibbiy terminologiyasida **bez** “organizm uchun zarur boʻlgan sekretlar ishlab chiqaruvchi aʼzo”ni anglatadi (TTEL, I, 591).

“Teri kasalliklarida uchraydigan toshmalar, mayda pufakchalar, qizil dogʻlar, ularning kepaksimon tangachalar bilan qoplanishi” maʼnosi hozirgi oʻzbek tibbiyotida **temiratki** termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 833). Bu kasallik “Devon”da **temirägü** (I, 453) istilohi bilan ifodalanishi qayd etilgan. Qiyos farq istiloning ikkichi qismi, yaʼni **ägü** va **atki** da yuz berganini koʻrsatadi.

“Terining ustki (epidermis) qavatining oʻsib ketishi natijasida hosil boʻladigan xavfsiz oʻsma” kasalligi **soʻgal** termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 235). “Devon”da bu istiloh **sigil**, **sügül** // **sögül** shakllarida uchraydi: *Er sügül sükländi* – Odam soʻgalga davo qildi va tuzatdi (III, 316). Vaqt oʻtishi bilan **sögül** hozirgi **soʻgal** shaklini olgan.

Bugungi oʻzbek tibbiy terminlari sirasida “qalqonsimon bezning kattalashishi” maʼnosi **buqoq** termini yordamida ataladi. Ushbu kasallik nomi ilk bor aynan “Devon”da qayd etilgan (II, 329).

Lugʻat tuzuvchining guvohlik berishicha, ajdodlar “tish orasidagi ochiqlik”ni **sığsağ** (< *sığsa*= “joylashmoq”) soʻzi bilan ifodalashgan (I, 431). Hozirgi oʻzbek tibbiy terminlar tizimida ushbu istiloh qoʻllanmaydi.

“Ogʻrimoq, zirqiramoq, qaqshamoq” maʼnosini bildirgan **sızlağ** istilohi sovuq tufayli “tish ziriqashi”ni anglatgan (I, 431).

Hozirgi oʻzbek tilida “badanda, koʻproq yuzda paydo boʻladigan suvli gʻudda; husnbuzar” maʼnosini bildiruvchi **sizlogʻich** termini (OʻTIUL, II, 44) “tarqalib ketmoq, yoyilmoq” semasida “Devon”da qoʻllangan **sız**= soʻzidan taraqqiy etgan (III, 198).

Lugʻat tuzuvchisi umuman “yara” maʼnosining **baş** termini orqali ifodalanishiga diqqat qaratgan. **Ol başığ bitürdi** – Dori yarani tuzatdi (III, 71). Mazkur tub turkiy istiloh birinchi bor Turfon matnlarida **qıl**= soʻzi bilan birikib, “yaralamoq” maʼnosida qoʻllangan (DTS, 87). **Baş** termini taʼkidlangan semada “Tarjumon” (35a3), “Qisasi Rabgʻuziy” (11v5) singari XIII–XIV yuzyil manbalari matnida qoʻllanishda davom etgan. Eʼtiborga molik jihat shundaki, tahlil qilinayotgan istiloh “Gul va Navroʻz” dostonida “yara, ogʻriq; uqubat, qiyinchilik” maʼnolarini anglatishga xizmat qilgan:

Çu bu hoş mujdani Navruz ešitti,

Qadam baştın qilib baş birlä yetti (99r10).

Kamol Xoʻjandiyning “Latofatnoma” asarida **baş** birligi **qıl**= soʻzi bilan sintagmatik munosabatga kirishib, “yaralamoq” maʼnosini bildirgan: *Yürägimni firâqîñ baş qildi* (296-c).

Mahmud Koshgʻariy nafaqat odamlar, balki jonivorlar, xususan, otning koʻkragiga chiqadigan, undan yiring, fasod oqadigan yara turi **çildäk** istilohi bilan ifodalanishi, bunday yara

turi dog'lab tuzatilishi borasida qimmatli ma'lumot keltirilgan (I, 442). Boshqa obidalar bu yasama (čil=dä+k) istilohni bilmaydi.

Aksariyat stafilocok oqibatida soch ildizi xaltachasi va yog' bezining o'tkir yallig'lanish kasalligi hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida **chipqon** termini bilan ifodalanadi (TTEL, II, 1030). Mahmud Koshg'ariy **čipqan** so'zi: 1) jilon jiyda hamda 2) qizillikda jilon jiydaga o'xshagan yarani anglatishiga kitobxon diqqatini qaratgan (I, 419). "DTS" da **čibğan** (150), **cubaqan** (156), **cipqan** (150) shakllari qayd etilgan. S. Rahmatullayev **chipqon** xususida mulohaza yuritib, unobi o'simligi nomi o'xshashlik asosida badandagi chiqiqqa nom sifatida ko'chiriganini ta'kidlagan (O'TEL, I, 501).

Ichki kasalliklarni anglatuvchi istilohlar lug'atda aksini topgan tibbiy terminlar tizimida son jihatdan nisbatan yetakchilik qiladi. Chunonchi, oshqozon va me'da buzilishi bilan bog'liq kasallik nomlari turfaligi bilan xarakterlanadi.

Ovqat hazm qilish a'zosi – me'daning buzilishi kasalligi o'zga manbalarda qayd etilmagan **um** istilohi yordamida ifodalangan: *Er um boldi* – Erkak kishining me'dasi buzildi (I, 83).

Hozirgi o'zbek tibbiy terminlari ichida "mikroblar keltirib chiqaradigan yuqumli, patalogik o'zgarishlar yo'g'on ichakda kechadigan, qon va shilliq aralash kuchli iç ketish kasalligi **dizenteriya** hamda **ichburug'** terminlari bilan anglashiladi (KTO'L 162). Bu kasallik eski turkiy tilda **öt**= "o'tmoq", harakat fe'liga **-(ü)g** affiksini qo'shishdan yasalgan **ötüg** istilohi bilan anglashilgan: *Anar ötüg tutti* – Unga ichburuq huruj qildi (I, 99). "Qattiq ich ketishi; qorin og'rig'i" ma'nosi "talamoq, vayron etmoq, harob qilmoq" semali **tala**= leksemasidan **-ğu** qo'shimchasi yordamida yuzaga kelgan **talağu** derivati bilan anglashilgan. Lug'atchi ushbu istiloh, shuningdek, "tez ta'sir qiluvchi zahar"ni ham ifodalashini e'tirof etgan (I, 418). Ich ketish kasalligining yana bir turi **tolğa**= "tutmoq, siqmoq, qismoq" harakat fe'lidan **-q** // **-ğ** affiksi ishtirokida voqelangan **tolğa**q // **tolğağ** termini bilan ifodalangan (II, 333). "Hahj ul-farodis" matnida **tolğağ** "dard (tugish chog'ida)" ni ifodalagan (NF, 144b2). Hozirgi o'zbek adabiy tilida **to'lg'oq** leksemasi 1) "tug'ish oldida tutadigan qattiq og'riq, dard" hamda 2) ko'chma "Og'ir mashaqqat, qiyinchilik, bezovtalik" semalarida qo'llanmoqda (O'TIL, II, 248). Leksemaning izohli lug'atda keltirilgan ikkinchi ma'nosi eski turkiy til davridan hozirgacha saqlanib qolgan.

Hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida "qonda o't pigmenti (*bilirubin*) miqdorining oshib ketishi natijasida teri va shilliq qavatlarning sariq rangda bo'yalish holati" ma'nosi **sariq kasalligi** birikma termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 599). "Devon"da ushbu kasallik **sariğ kezik** (I, 372) va **atğaq** (I, 66) istilohlari yordamida ifodalangan. Lug'atchi ajdodlar qo'llagan tibbiy terminlar qatorida qulanjga o'xshash kasallikning **inägü** yasamasi bilan ifodalanganini qayd etgan (I, 155). DTS tuzuvchilari mazkur terminni "заболевание нижней части живота, резь в животе, грыжа" tarzida izohlashgan (269).

"Qorin bo'shlig'i" a'zolarining kasallanishi bois o'qtin-o'qtin sanchiq tutish, sanchib og'rish" ma'nosi hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida **sanchiq** (< *sanch*= "sanchmoq, og'rimoq") termini bilan anglashiladi (TTEL, I, 747). Qayd etilgan semema "Devon"da birinchi marta Turfon matnlarida qo'llangan (DTS, 586) **tupulğa**q // **topulğa**q (< *tupul*= // *topul*= "yirtmoq") yasama termini yordamida ifodalangan (I, 461). Lug'atda **sanč**= "tiqmoq, sanchmoq" leksemasiga – **(i)q** affiksini qo'shishdan voqelangan **sančiq**= istilohi "mag'lubiyatga uchramoq, yengilmoq" ma'nosini anglatgan (II, 392).

Hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida "kasallik qo'zg'atuvchi omillar ta'siriga organizm bergan javobdan vujudga kelgan murakkab holat, organizmda issiqlik muvozanati buzilishi natijasida tana harorati ko'tarilishi" **isitma** termini ko'magida anglashiladi (TTEL, I, 830). Ta'kidlangan semema Mahmud Koshg'ariy lug'atida **kez**= "yurmoq, kezmoq" harakat fe'lidan – **(i)k** affiksi ishtirokida yuzaga chiqqan **kezik** yasama termini bilan ifodalangan (I, 372). Ushbu asl turkiy istiloh ilk bor Turfon matnlarida **kezik ig** "isitma kasalligi" birikma termin tarkibida qayd

etilgan. "Isitma kasali bor, isitmaga chalingan" ma'nosini "Qutadg'u bilig"da **keziklig** termini bildirgan (DTS, 305).

Vaqt- bevaqt tirishish, qisqa muddatga es-hushni yo'qotish bilan kechadigan kasallik hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasida **quyonchiq** va **tutqanoq** terminlari bilan ataladi (KTO'L, 538).

Mahmud Koshg'ariy lug'atida keltirilgan sememani ifodalash **tal**= "hushdan ketmoq, hushini yo'qotmoq" leksemasidan **-qan** qo'shimchasi ishtirokida voqelangan **talqan**: *talqan* ig-tutqanoq kasalligi (I, 411) hamda **tut**= "tutmoq, ushlamoq" so'ziga – **(u)g** affiksini qo'shishdan yuzaga chiqqan **tutuğ** istilohlari zimmasida bo'lgan: *Aniğ tutuği bar* – Uning tutqanoq kasali bor (I, 354). Shu o'rinda, tahlil qilinayotgan kasallik turk (uyg'ur) yozuvli budda manbalari matnida **tutğaq** (DTS, 592) derivati yordamida anglashilganini ta'kidlash o'rinli.

Faqat insonlarda uchraydigan va bakteriya tarqatadigan, surunkali, butun tana a'zolariga tarqaladigan yuqumli kasallik hozirgi o'zbek tibbiy terminlari tizimida **moxov** termini bilan ataladi (KTO'L, 392). Eski turkiy tilda ushbu kasallik **anumī** istilohi bilan anglashilgan (I, 155). Kelib chiqishi, bizningcha, **anu**= "tayyorlanmoq, tayyor turmoq" holat fe'liga aloqador **anumī** termini o'zga manbalarda qayd etilmaydi.

Xullas, olib borilgan izlanish Mahmud Koshg'ariyning ko'p yillik mashaqqatli mehnati evaziga dunyo yuzini ko'rgan "Devonu lug'otit turk" asarida izohlangan tibbiy terminlar rang-barang mavzu guruhlar, xususan, odam tashqi va ichki a'zolarida kechadigan kasalliklarga tegishliligi, lug'at tuzilgan zamonda qo'llangan istilohlarning muayyan ulushi hozirgi o'zbek tibbiy terminologiyasi tizimida qo'llanishda qolayotgani, qolgan qismiesa, tilda yuz beradigan ichki hamda tashqi omillar bois iste'moldan chiqib ketganini ko'rsatdi.

Shartli qisqartmalar ro'yxati

1. ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. -Тошкент: Фан, 1983-1985.
2. Devon – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони). I-III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: филология фанлари кандидати С.М. Муталлибов. – Тошкент: ЎзССР ФА, 1960-1963.
3. DTS – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
4. KTO'L – Usmonxodjayev A. Katta tibbiyot o'quv lug'ati (ruscha-lotinja-o'zbekcha). – Toshkent: Navro'z, 2013.
5. NF – Mahmud ibn Ali as-Saroyi. Nahj ul-farodis (Jannatning ochiq yo'li). Qo'lyozmaning yangi alifboda nashrga tayyorlangan nusxasi.
6. TTEL – Usmonxodjayev A., Basitxonova E., Nazirov P., Turaxanova M. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug'ati. I-II. – Toshkent, 2010.
7. O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II. – М.: Русский язык, 1981.
8. Qisasi Rabg'uziy- Rabghuzi. Narrationes de Prophetis. Reproduced in Facsimile. Wirt in introduction by K.Gronbech.-Copenhagen, 1948.